



IMV
Iqtisodiyot va moliya vazirligi

YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH SOHASI BO'YICHA AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR

2022-YIL DAVOMIDA AMALGA
OSHIRILGAN ISHLAR VA 2023-YILDAGI
USTUVOR YO'NALISHLAR

2023-YIL



Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish sohasi bo'yicha amalga oshirilgan ishlar

I. Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish sohasida 2022-yil davomida amalga oshirilgan ishlar.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekbrdagi **“2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida”**gi PQ-436-son Qarori qabul qilindi. Qaror bilan quyidagi strategik hujjatlar va tizimlar tasdiqlandi:

- strategik maqsadlarga erishishga mo'ljallangan 2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasida **“yashil” iqtisodiyotga o'tish** va **“yashil” o'sishni ta'minlash** Dasturi;

- sanoat tarmoqlarida **“yashil” iqtisodiyotga o'tish** va **energiya tejamkorligini ta'minlash** bo'yicha Konsepsiya;

- 2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasida **“yashil” iqtisodiyotga o'tish** va **“yashil” o'sishni ta'minlash** bo'yicha **Harakatlar rejas**i;

- ishlab chiqarilgan mahsulotning energiya sig'imi ko'rsatkichini **2026-yilga kelib 2022-yilga nisbatan 20 foizga kamaytirish**ga qaratilgan 2022–2026-yillarda iqtisodiyot tarmoqlarida yoqilg'i-energetika resurslarini tejashning **Maqsadli parametrlari**;

- O'zbekiston Respublikasida **“yashil” iqtisodiyotga o'tish** choralarini muvofiqlashtirish bo'yicha **Idoralararo kengash tarkibi yangilandi**;

- **“Yashil” iqtisodiyotga o'tish** va **«yashil» o'sish** bo'yicha **Donorlarning muvofiqlashtirish guruhi** tasdiqlandi.

- Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligida qo'shimcha 4 ta shtat birligidan iborat Donorlarning muvofiqlashtirish guruhi faoliyatini tashkil qiluvchi, **“Yashil” iqtisodiyot Strategiyasi, Dasturi va Harakatlar rejasida** belgilangan vazifalarni amalga oshirishda uni Idoralararo kengash bilan o'zaro muvofiqlashtirishga ko'maklash ishchi organi vazifasini bajaruvchi **loyiha ofisi Texnik kotibiyati** tashkil etildi.

2. **Fransiya taraqqiyot agentligi (AFD)** bilan hamkorlikda **“Yashil” iqtisodiyot** bo'yicha davlat siyosati sohasida qarz dasturi amalga oshirildi. Mazkur dastur doirasida AFD tomonidan O'zbekiston Respublikasini **“yashil” iqtisodiyotga o'tishiga** ko'maklashish ko'zda tutilgan bo'lib, 2022-yil davomida AFD budjet ko'magi mablag'lari hisobidan O'zbekiston Respublikasi budjetiga **150,0 mln yevro miqdorida kredit mablag'lari** o'tkazildi.

Mazkur loyiha doirasida **qazilma yoqilg'ilari subsidiyalarini xatlovdan o'tkazish va qisqartirish, iqtisodiyotni dekarbonizatsiyalash bo'yicha uzoq muddatli strategiyani ishlab chiqish, milliy miqyosda issiqxona gazlari tashlanmalarining monitoringi, hisoboti va tekshiruvi (MRV) tizimi joriy etish, “yashil” budjetlashtirish va soliqqa tortishni joriy qilish** hamda boshqa yo'nalishlarda ishlar amalga oshirilmoqda.

Shuningdek, ushbu loyiha doirasida 2023–2025-yillarda amalga oshiriladigan ishlarni moliyalashtirish maqsadida **Yevropa Ittifoqining 6,1 mln yevro grant mablag‘lari** jalb qilindi.

Shu bilan birga, joriy yilning oktabr oyidagi O‘zbekiston Respublikasi delegatsiyasining Fransiyaga tashrifi doirasida **“Yashil” iqtisodiyot tamoyillari asosida viloyatlar (shaharlar)ning bosh rejalarini ishlab chiqish** va amalga oshirish” loyiha doirasida **100 mln yevro jalb qilinish bo‘yicha dastlabki kelishuvga** erishilgan.

3. Qazilma yoqilg‘ilar subsidiyalarini kamaytirish hisobiga energiya resurslari sarfini maqbullashtirish maqsadida Fransiya taraqqiyot agentligi loyihasi doirasida Iqtisodiy taraqqiyot vazirligi Barqaror rivojlanish xalqaro instituti (IISD) bilan birgalikda qazilma yoqilg‘ilar subsidiyalarini xatlovdan o‘tkazish hamda ularni kamaytirish bo‘yicha loyiha yo‘lga qo‘yildi. Uning doirasida qazilma yoqilg‘ilari subsidiyalarini xatlovdan o‘tkazish birlamchi metodologiyasi tayyorlandi.

4. 2022-yilning may oyida Metan emissiyasini kamaytirish bo‘yicha global majburiyat (*The Global Methane Pledge*) to‘g‘risidagi tashabbusga O‘zbekiston qo‘shildi.

Mazkur tashabbusga O‘zbekiston joriy yilning may oyida Buxoro shahrida bo‘lib o‘tgan **kambag‘allikni qisqartirish mavzusidagi xalqaro forum doirasida** qo‘shildi. Tashabbus unga qo‘shilgan a‘zolarining 2030-yilgacha **global metan emissiyasini 2020-yil darajasidan kamida 30%ga kamaytirish bo‘yicha** jamoaviy sa’y-harakatlarga hissa qo‘shish uchun ixtiyoriy harakatlar qilishga roziligini bildiradi.

Tashabbus doirasida mamlakatda amaliy harakatni boshlash maqsadida Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankining (YeTTB) **“Metan emissiyasini kamaytirish milliy dasturini ishlab chiqish”**ga qaratilgan texnik ko‘magi jalb qilindi (*umumiy miqdori 1 mln AQSH dollari*).

5. Jahon banki bilan birgalikda Parij bitimi 6-moddasiga muvofiq qisqartirilgan issiqxona gazlarining xalqaro savdosi mexanizmini sotuvini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha loyiha ishlab chiqildi.

Bunda, Jahon banki huzuridagi “Uglerod aktivlari transformativ fondi” (Transformative Carbon Asset Facility – TCAF) moliyaviy ko‘magida O‘zbekiston hukumatiga uglerod bozorida ishtirok etishda ko‘maklashiladi. Xususan, respublikada qisqartirilgan issiqxona gazlari savdosini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha pilot loyihalarini amalga oshirish uchun **20 mln AQSH dollari grant mablag‘lari** hamda pilot loyihalar asosida yana **25 mln AQSH dollari miqdorida qo‘shimcha mablag‘lar** jalb qilinishi belgilangan.

TCAF – Jahon bankning trust fondi bo‘lib mamlakatlarning uglerod narxini bozorga chiqarish va xususiy sektorga past uglerodli texnologiyalarga sarmoya kiritishga yo‘naltirilgan sa’y-harakatlarini qo‘llab-quvvatlaydi.

6. O‘zbekiston va Yaponiya hukumatlar o‘rtasida iqtisodiyot tarmoqlarida **issiqxona gazi emissiyasini kamaytirishga qaratilgan** zamonaviy “yashil” texnologiyalarni jalb qilishni ko‘zda tutuvchi **Joint Credit Mechanism (JCM)** mexanizmi yo‘lga qo‘yilishi bo‘yicha kelishildi (2022-yil oktabrda hamkorlik Memorandumi imzolandi).

*Ma’lumot uchun: Qo‘shma moliyalashtirish mexanizmi – Yaponiyaning rivojlanayotgan mamlakatlarda zamonaviy texnologiyalarni **50%gacha qismini moliyalashtirish** asosida joriy qilish orqali issiqxona gazi emissiyasini kamaytirish bo‘yicha hamkorlik tizimi.*

Xuddi shunday, O‘zbekiston va Koreya hukumatlari o‘rtasida iqlim va issiqxona gazlarni qisqartirish masalalari bo‘yicha kelishuv yuzasidan ishlar olib borildi hamda imzolashga tayyorlandi.

7. Jahon banki va YeTTB bilan birgalikda **Iqtisodiyotni dekarbonizatsiyalash va “yashil” rivojlanish modeliga o‘tish** bo‘yicha uzoq muddatli strategiyani (LTS) ishlab chiqish loyihasi yo‘lga qo‘yildi.

Ma’lumot uchun: Parij bitimining 4-moddasiga muvofiq, mamlakatlar 2050-yilgacha uglerod neytralligiga erishishga qaratilgan o‘zlarining uzoq muddatli strategiyalarini ishlab chiqishlari lozim.

Strategiya doirasida iqtisodiyot tarmoqlarida uglerod neytralligiga erishish uchun amalga oshiriladigan asosiy chora-tadbir va loyihalar, talab qilinadigan kapital qo‘yilmalar hajmi ko‘rsatilgan investitsiya rejasi tayyorlanadi.

8. Jahon banki bilan birgalikda:

– 2030-yilgacha iqlim o‘zgarishining O‘zbekiston iqtisodiyotiga bevosita va bilvosita ta’sirlari o‘rganildi hamda uning asosida **“Towards a Greener Economy”** hisoboti tayyorlandi hamda **II O‘zbekiston iqtisodiy forumida taqdimot qilindi.**

– Iqlim o‘zgarishi sharoitida iqtisodiy o‘sishni ta’minlash bo‘yicha **milliy baholash (CCDR – Climate Change and Development Report) loyihasini** amalga oshirish yo‘lga qo‘yildi. Ushbu baholash iqtisodiyotga xalqaro arzon “yashil” moliyaviy ko‘maklarni jalb qilishga ko‘mak beradi.

9. Osiyo taraqqiyot banki bilan hamkorlikda:

- O‘zbekistonda davlat investitsiyalarini boshqarishni baholashning **iqlim bilan bog‘liq mezonlarini (C-PIMA)** qo‘llash imkoniyati o‘rganildi va uni joriy qilish bo‘yicha tegishli taklif va tavsiyalar tayyorlandi;

- yirik sanoat korxonalarida **ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv tamoyillarini (ESG)** joriy qilishning joriy holati o‘rganildi, ushbu tamoyillarni keng joriy qilish bo‘yicha takliflar ishlab chiqildi hamda ular uchun seminar treninglar tashkil qilindi;

- O‘zbekistonda iqlim o‘zgarishining iqtisodiyot tarmoqlariga bo‘lgan **xavfini baholash instrumentini (Climate Risk Assessment Tool)** ishlab chiqish bo‘yicha texnik ko‘mak jalb qilindi.

10. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “**O‘zbekiston Respublikasida aylanma iqtisodiyotni rivojlantirish hamda qattiq bioyoqilg‘idan foydalanish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida**”gi qaror loyihasi ishlab chiqildi va Vazirlar Mahkamasiga kiritildi.

II. 2023-yilda yashil iqtisodiyot sohasida amalga oshiriladigan ustuvor islohotlar.

1. Mahsulotlar qayta tiklanuvchi energiya manbalari hisobidan va ekologik jihatdan toza texnologiyalar yordamida ishlab chiqarilganligini tasdiqlovchi hamda bu bilan bog‘liq barcha jarayonlarni kuzatib borish imkonini beruvchi “**yashil sertifikatlar**” **tizimi** ishlab chiqiladi va joriy etiladi.

Mazkur tizimga ko‘ra, qayta tiklanuvchi energiyani ishlab chiqaruvchilar “yashil sertifikat”ni yakuniy foydalanuvchiga (tovarlar ishlab chiqaruvchilar, iste‘molchilar) sotadi va bu bilan energiyaning “tozaligi”ga kafolat beradi.

*Bu esa yakuniy foydalanuvchilarga **o‘z mahsulotlarini sotish va eksport qilish hajmini oshirish** (Yevropa Ittifoqida sertifikatlar majburiydir), xalqaro va xorijiy moliya tashkilotlaridan “yashil” investitsiyalar va “yashil” kreditlarni jalb qilish imkonini beradi.*

2. O‘zbekiston Respublikasining “**Issiqxona gazlarining chiqarilishini cheklash to‘g‘risida**”gi qonun loyihasi ishlab chiqiladi. Shuningdek, 2023–2026-yillarda issiqxona gazlarining chiqarilishini davlat tomonidan tartibga solish infratuzilmasi bosqichma-bosqich yaratish bo‘yicha harakatlar dasturi ishlab chiqiladi.

Bunda, issiqxona gazlarining chiqarilishini hisobga olish, ularning davlat kadastrini hamda uglerod birliklarining reyestrini yuritish yo‘lga qo‘yilishi, tarmoqlar kesimida issiqxona gazlari emissiyasini qisqartirishning maqsadli ko‘rsatkichlari belgilab borilishi, issiqxona gazlari emissiyasini qisqartirish bo‘yicha faoliyatni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari joriy etilishi ko‘zda tutiladi.

3. Barcha issiqxona gazlarini qamrab oluvchi **Iqlim o‘zgarishi sohasida monitoring, hisobot berish va tekshirishning zamonaviy tizimi (MRV)** yo‘lga qo‘yish ishlari amalga oshiriladi.

MRV tizimi doirasida issiqxona gazlarining barcha manbalari ustidan doimiy monitoring o‘rnatiladi va ularning emissiyasini qisqartirish bo‘yicha chora-tadbirlar belgilab boriladi.

4. Barcha yo‘nalishdagi loyihalarini rejalashtirishdan oldin ularning **issiqxona gazi miqdorini qisqartirish imkoniyatini baholash**, buning natijasida qisqartirilgan issiqxona gazi miqdorini **sertifikatlashtirish** va ishlab chiqarilgan mahsulotlarni xalqaro bozorlarda realizatsiya qilishga qaratish amaliyoti joriy etish choralari ko‘riladi.

Mazkur amaliyot orqali ekologik jihatdan toza mahsulotlarni eksport qilish hajmini oshirish, shu jumladan, ularga nisbatan yuqori talablar belgilangan davlatlarga (birinchi navbatda, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari) yo‘naltirishga xizmat qiladi.

5. Qazilma yoqilg'ilari tarmog'ini qo'llab-quvvatlaydigan va uni "yashil" energiya bilan taqqoslaganda sun'iy ravishda raqobatbardosh qiladigan **davlat subsidiyalari** va **rag'batlantirish choralari**ni xatlovdan o'tkazish;

6. **"Yashil kafolat" (Green Wager) dasturi** va tabiiy resurslarga asoslangan tadbirkorlik faoliyati asosida yaratiladigan ish o'rinlari sonini ko'paytirish yuzasidan takliflar ishlab chiqiladi.

Bunda, tegishli sohalarda "yashil" tadbirkorlikni rivojlantirish, **tabiiy resurslarga asoslangan tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish** bo'yicha pilot loyihalarni amalga oshirish, "yashil" tadbirkorlik hamda tabiiy resurslarga asoslangan tadbirkorlik faoliyatlarini kengaytirishni rag'batlantirish ko'zda tutiladi.

7. 2023-yil mart oyiga qadar xorijiy ekspertlarni jalb qilgan holda, sanoat korxonalarida **ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv tamoyillarini (ESG)** joriy qilishni jadallashtirishni ko'zda tutuvchi takliflar ishlab chiqiladi.

8. Jahon banki va uning huzuridagi **"Uglerod aktivlari transformativ fondi" (Transformative Carbon Asset Facility – TCAF)** bilan hamkorlikda respublikada qisqartirilgan issiqxona gazlarini savdosi (*Carbon Trade*) pilot loyihasi amalga oshiriladi.